

SHARTNOMA № TS- 469

Pullik xizmatlarni ko'rsatish haqida

Toshkent sh.

"25" 01 2022 y.

Keyingi o'rinlarda "BUYURTMACHI" deb ataluvchi BUYURTMACHI nomidan Huzor asosida faoliyat yurituvchi X. Xolmatov, bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi «IT MED» MCHJ, keyinchalik "IJROCHI" deb ataluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor V.b Xakimov Artur Bakirovich, boshqa tomondan, bundan keyin birgalikda va/yoki alohida "TARAFLAR" va/yoki "TARAF" deb nomlanuvchilar, ushbu "SHARTNOMA"ni quyidagilar haqida tuzdi:

1. SHARTNOMANING PREDMETI.

1.1. IJROCHI quyidagi ixtisoslashtirilgan axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlarni, bundan keyin XIZMATLAR deb yuritiladi, amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

- Elektron xujjat almashish;
- Poliklinika;
- Tug'ilish va o'limni elektron ro'yxatga olish;
- Yuqumli kasalliklar epidemiologik monitoringi;
- Qon xizmati;
- Pochta;
- Kadrlar resurslarini boshqarish;
- Muassasa pasport ma'lumotlari yagona tizimi;
- Xatlov.uz axborot tizimi;
- "TMEK" dasturiy majmuasi;
- Bemor.ssv.uz;
- Ssv.uz rasmiy sayti;
- "Narkologik kasallar hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- "Psixonevrologik kasallar hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- Koronavirus infeksiyasiga (COVID-19) qarshi emlash hisobini yuritish bo'yicha yagona axborot tizimi;
- Xizmat.ssv.local.

BUYURTMACHI ushbu SHARTNOMA shartlariga muvofiq ularni qabul qilish va to'lash majburiyatini oladi.

XIZMAT narxлари					
№	XIZMAT nomlanishi	O'lov birligi	Miqdor	Narxi, (QQS siz)	Umumiy summa (QQS siz)
Har oylik xizmatlar:					
1.	Ixtisoslashtirilgan axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlash	Oy	3	680.000 so'm	2 040 000,00
Jami:					Summa ikki million qirq ming so'm 00 tiyin

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

2.1. IJROCHIning majburiyatlari:

2.1.1. XIZMATLARNI, 1-ilovaga muvofiq mas'uliyat chegaralarini taqsimlash doirasida, BUYURTMACHI o'zining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib, SHARTNOMAning 3.2, 2.1.3-bandlari bajargandan so'ng 2-ilovasi (IJROCHIGA texnik talablar) shartlariga muvofiq bajarish.

2.1.2. SHARTNOMAning 1-ilovasiga muvofiq jihozlarning nosozligi va unga tegishli bo'lmagan aloqa kanallarining yetishmovchiligi uchun javobgar emas.

2.1.3. IJROCHI, pudratchi bilan alohida SHARTNOMA tuzish sharti bilan BUYURTMACHIning apparat va dasturiy ta'minotini texnik qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ixtisoslashgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va uni keyinchalik boshqarish va qo'llab-quvvatlash uchun outsorsing xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

2.2. BUYURTMACHIning majburiyatlari:

2.2.1. Taqdim etilgan XIZMATLAR uchun o'z vaqtida va to'liq to'lovni amalga oshirish.

2.2.2. 1 (bir) kun ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining korporativ tarmog'iga (elektron pochta xizmati va axborot tizimlari) kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning kadrlar almashinuvi to'g'risida ma'lumot berish.

2.2.3. 2-ilovada ko'rsatilgan barcha texnik talablarga rioya qilish.

2.2.4. IJROCHIning ish vaqtining istalgan vaqtida uning faoliyatiga aralashmasdan, IJROCHI tomonidan taqdim etilayotgan XIZMATLAR sifatini tekshirish huquqiga ega.

3. SHARTNOMA NARXI, TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI.

3.1. Oylik to'lov 680.000 so'm (olti yuz sakson ming so'm 00 tiyin)ni, SHARTNOMAning umumiy summasi 2 040 000 so'm (ikki million qirq ming so'm 00 tiyin)ni tashkil etadi, ushbu summa SHARTNOMA davrida texnik ko'mak uchun umumiy xarajatlardir.